

MAKTAB BIOLOGIYA DARSLARINI FUNKSIONAL SAVODXONLIK ASOSIDA TASHKIL ETISH

Isag'aliyeva Sadafxon Muxammadaminovna, o'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti

ARTICLE INFO.

Annotation:

Kalit so'zlar: maktab ta'limi, texnologiya, funksional savodxonlik, topshiriqlar, biologik savodxonlik

Maqolada PISA dasturi asosida umumiy o'rta ta'limga muktablarida funksional savodxonlik, uning tarkibiy qismlari, ahamiyati yoritilgan. Maktabdagi biologiya darslarida o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish uchun topshiriqlar tuzishning namunalari ko'rsatil o'tilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

Introduction

Bugungi kunda biologiya fani ta'limga tizimining samaradorlik ko'rsatkich va darajalarini aniqlashning intensiv texnologiyalarini ishlab chiqish, o'quvchilar bilimini baholashning obyektivligini ta'minlash maqsadida diagnostikalash, ta'limga sifati monitoringini olib borish va biologiya mutaxassislari tayyorgarligini orttirish bo'yicha keng miqyosda tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, "ta'limga sifatini baholash, jarayonning shakl-shamoyilini va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarini aniqlash, uni amalga joriy etishning imkonini beruvchi turli mexanizmlarni amaliyatga joriy etish" [1], biologiya darslarida o'quvchilarning bilimini baholash jarayonida ularning funksional savodxonligini ham baholab borishda xalqaro baholash mezonlariga mos holda ish olib boorish hamda uni o'quvchilarga har qanday sharoitda qo'llay olish jihatidan ham alohida dolzarblik kasb etadi.

Ta'limga sohasidagi xalqaro qiyosiy tahlil va tajribalar shuni ko'rsatadiki, respublikamizdagagi umumiy o'rta ta'limga muassasalarida ta'limga olayotgan o'quvchilar biologiya fani bo'yicha bilim jihatidan ancha kushli, ammo ularning bu bilimlarini amaliy-yo'naltirish, shu jumladan hayotiy muhim vaziyatlarda qo'llay olish jarayonida turli qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shu munosabat bilan bugungi kunda biologiya bo'yicha ta'limga vazifalaridan biri o'quv faoliyati bilan bog'liq holda o'quvchilarning hayotiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishning eng yaxshi usullarini topish va amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirishdir, ya'ni ularning biologiya fanidan funksional savodxonligini samarali shakllantirish zarur. Buning ushun zamonaviy taraqqiyotga mos holda o'quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirishni raqamli ta'limga muhitida amalga oshirishga qaratilgan metodik ta'minotini

mustahkamlash, uning samaradorligini oshirishga yordam beradigan omillarni izlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi [2].

Bizning ilmiy ishimizni asosiy mazmuni bo‘lgan funksional savodxonlik o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini, o‘quvchilar olayotgan bilimning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Funksional savodxonlikni shakllantirishning turli bosqichlarida o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyati o‘rtasidagi munosabatlar darsning turli bosqichlarida sodir bo‘ladi: maqsadni belgilash, rejalshtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, natijalarini baholash [2].

Umuminsoniy qadriyatlarining, insonning shahs sifatida shakllanishiga yordam beradigan madaniyatning tarkibiy qismini ochib beradigan, dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirishga yordam beradigan turli biologik bilimlarni o‘zlashtirishning asosiy yo‘llaridan biri-biologik bilimlar va hayot o‘rtasidagi bog’liqlikni aniqlash muhim hisoblanadi. Biologik bilimlarning ahamiyatini deyarli barcha sohalarda, xususan sog‘liqni saqlash va atrof-muhit bilan to‘g‘ri munosabatga kirishish uchun hayotda qo‘llay olish imkoniyatlarini ko‘rsatib o‘tish, tushuntirish juda muhim [3, 4]. Hayotda salomatlikni saqlash uchun, atrof-muhit bilan yetarli darajada o‘zaro ta’sir qilish biologik bilimlarning ahamiyati, qo‘llash imkoniyatini muhimligini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishda nafaqat ilmiy-texnologik taraqqiyotga moslashtirish, balki ta’lim jarayoniga va o‘quvchiga alohida yondashuvni ham o‘zgartirish lozimligini ko‘rsatadi.

Funksional savodxonlikni rivojlantirishning zaruriy sharti ijodiy turdag'i uy vazifalarining mayjudligidir. Bu o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab sinkveynlar, esselar, eslatmalar, ko‘rgazmalar, ko‘rsatmalar, topishmoqlar, she’rlar(o‘z ijod namunasi bo‘lsa yanada yahshi), tavsiyalar, taqrizlar yozish, jadvallar bilan ishslash va boshqalar bo‘lishi mumkin. [5]

Funksional savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish muammolarining tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki, biologiya darslariga qo‘yilgan muammolarni, vazifalarni hal etish jarayonida o‘qituvchi axborot tashuvchisi pozitsiyasidan maslahatchi lavozimiga o‘tishi juda yaxshi natija beradi.

Funksional savodxonlikni tadqiqot faoliyati orqali shakllantirish va rivojlantirish uzoq va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Biroq ta’limning uzlusizligi, har bir bolaning individual xususiyatlarini rivojlantirish, ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish, iqtidorli bolalarni kashf etish va qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga rioya qilish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Shunda tadqiqot faoliyati orqali funksional savodxonlikni rivojlantirish jarayoni to‘liq va yaxlit bo‘ladi [6]. Quyida tajribamiz asosi-funksional savodxonlik bo‘yicha tayyorlangan namunalardan keltirib o‘tamiz.

1. Suhbat nima haqida bo‘lishini iloji boricha kamroq maslahatlardan foydalangan holda taxmin qilishingiz kerak:

1. Bu organ yuksak o‘simliklar evolyutsiyasidagi eng muhim yutuqdir.
2. Bu o‘simlikning hayotiy organidir.
3. Bu organ o‘simlik hayotining ma’lum bir davrida paydo bo‘ladi.
4. Bu organ o‘simlikning embrioni deyiladi.
5. Uning yordami bilan o‘simliklar butun yer yuzasi bo‘ylab tarqalishi mumkin.

Javob: urug‘.

2. Tasavvur qiling, siz ko‘l bo‘yida turibsiz. Suvda o‘simliklar ko‘rinmaydi. Ammo ko‘lning suvi yashil rangda. Bu ko‘lni Yashil deb atashlari ajablanarli emas. Siz bir hovuch suv olasiz va u butunlay shaffof. Faqat chuqur suvga milliardlab ko‘rinmas o‘simliklar yashil rang beradi. Ular shunchalik kichikki, ularni faqat mikroskop ostida ko‘rish mumkin.

Biz qanday ko‘rinmas o‘simliklar haqida gapirayapmiz?

Javob: bir hujayrali yashil suv o‘tlari.

3. Yangi kun ma’nosini bildiruvchi bahor ayyomining go‘zal bayrami Navro‘zda bayramning eng shoh taomi hisoblanmish – sumalak tayyorlanadigan o‘simlikning qaysi oila vakili ekanligini hamda sumalakning shirinligini ta’minlab beradigan uning qaysi qismi ekanligini topping.

Javob: Sumalak tayyorlanadigan o‘simlik-bug‘doy, boshoqdoshlar oilasining vakili hisoblanadi. Taomning mazali bo‘lishi esa bug‘doy endospermi qancha to‘liq(semiz) bo‘lsa, sumalak shuncha shirin bo‘ladi.

4. Qaysi o‘simlik haqida gap ketayotganini iloji boricha kamroq ma‘lumotlardan foydalangan holda javob berishingiz kerak:

- buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnayn bu sabzavotni o‘z askarlarini boqish uchun yeishni buyurgan, bu sabzavot ularga kuch, jasorat va chidamlilik qo‘sadi deb ishongan;
- mashhur ingliz sayohatchisi Jeyms Kuk – bu sabzavot kasalliklarni tanadan chiqarib yuborgan va dengizchilarining hayotini saqlab qolgan, deb hisoblagan;
- bu sabzavot boshqa sabzavotlar, mevalar, olma, pomidor, zira, piyoz bilan yaxshi ta’m hosil qila oladi;
- metabolizmga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, revmatizm va oshqozon, qand kasalliklarini davolashda, onkologiyada foydalaniлади;
- E vitaminiga boyligi uchun hujayralar taranglini, ayniqsa yuz tarangligini ta‘minlaydi;
- Tarkibida fosfor borligi uchun tish emalini mustaxkamlaydi;
- qadimgi slavyanlar bu madaniyatni Qrim va Qora dengiz mintaqasi hududlaridagi yunon-rum askarlaridan olgan. O‘simlik bilan birgalikda ular uning nomini olganlar va o‘zlariga xos tarzda nomni biroz o‘zgartirganlar. Shunday qilib, lotincha “kaput” – bosh so‘zidan bu sabzavotning nomi kelib chiqqan.

Javob: karam.

5. She’rda qaysi o‘simlik haqida gap bormoqda?

Men ko‘rdim shakli qiziq,
Quyoshdan olmas issiq.
Darahtda pishmas biroq,
Pishsa sariyog‘day yumshoq.

Javob: kartoshka haqida. Bu o‘simlik ayollarning kiyimlari va saroylarning gulzorlarini bezagan. Ukrain xalqi esa uni ikkinchi non deb hisoblagan va haligacha o‘z o‘rnini yo‘qotmagan.

5. She’riyatdagi biologik xatolarni topping:

1. Rafleziya pashshaga,
Meni ham changlat deydi.
Shirin hidlari uchun,
Bir kuni u pand yeidi.

Javob: Rafleziya gulidan keladigan hid juda badbo‘y- chirigan go‘shtning hidi keladi, bu uning asosiy changlatuvchisi – o‘rmon pashshalarini o‘ziga jalb etadi. Bu gul Sumatra va Kalimantan orollaridagi o‘rmonlarda o‘sadi. Lianalarning tanasida parazitlik qiladi.

6. Berilgan she’r matnidagi belgilar qaysi o‘simlikka xos? Qo‘sishimcha ta‘riflar: quyoshni sevuvchi, avlodlarini uchirma qiluvchi, to‘pgulli o‘simlik. Bu matndagi topiladigan nomga aynan multfilm ham ishlangan? Bu multfilmda esa hatto lotincha nomi ham keltirib o‘tilgan. Bu qaysi o‘simlik bo‘lishi mumkin.

Palahmontosh taqdiri, quyoshli o‘t boshida,
Uchib-qo‘nib yuradi, dilbandlari yonida.
Shamol qo‘ymas ularni, tortqilaydi to‘rt yoqqa,
Gullaydi u har mahal quyosh tushgach tuzoqqa.

Javob: momaqaymoq – qoqio‘t

O‘quvchilar uchun taklif qilingan vazifalar axborot, aloqa, kundalik hayot va kognitivlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Vazifalar maktab o‘quvchilarining o‘quv-tarbiyaviy ishlarini kuchaytirish, ularning tashkilotchilagini rivojlantirish, mustaqil o‘rganish, kerakli ma'lumotlarni topish va ulardan foydalanish, guruhlarda, juftlikda, yakka tartibda ishlashga, nostandart vaziyatlarda yechim topishga qaratilgan.

References:

1. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 48 p.
2. Исағалиева С. Ўқувчилар функционал саводхонлигини шаклантириш педагогик муаммо сифатида //Муғаллим ҳәм үзликсиз билимленидириў журнали. 2022. №5/3, 17-20 б.
3. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). М.: Икар, 2009. 448 с.
4. Виноградова Н.Ф., Кочурова Е.Э. и др. Функциональная грамотность младшего школьника: книга для учителя / под ред. Н. Ф. Виноградовой. М.: Российский учебник: Вентана-Граф, 2018. 288 с.
5. Isag‘aliyeva S.M. Ta’lim tizimi samaradorligini oshirishning zamonaviy yo‘llari //Ijodkor o‘qituvchi jurnali. 2022. №23, 427-431 b.
6. Isagaliyeva S. Functional literacy as a factor of formation of practical competences / I International Scientific and Practical Conference “Challenges and problems of modern science”, October 13-14, 2022, London, United Kingdom. 127 p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7226182>.